

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**PO‘LATOVA ZULXUMORXON JALOLIDIN QIZI**

**6-H(ALMASHINGAN)-BENZOKSAZOLIN-2-ONLAR (TIONLAR) SINTEZI  
VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

**02.00.03-Organik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences**

**Po‘latova Zulxumorxon Jalolidin qizi**

6-H(Almashingan)-benzoksazolin-2-onlar (tionlar) sintezi va kimyoviy o‘zgarishlari

..... 3

**Пулатова Зулхуморхон Жалололидин кизи**

Синтез и химические превращения 6-Н(замещенных)-бензоксазолин-2-онов

(тионов) ..... 21

**Pulatova Zulhumor**

Synthesis and chemical modifications of 6-H(substituted)-benzoxazolin-2-ones

(thiones) ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**PO‘LATOVA ZULXUMORXON JALOLIDIN QIZI**

**6-H(ALMASHINGAN)-BENZOKSAZOLIN-2-ONLAR (TIONLAR) SINTEZI  
VA KIMYOVIY O‘ZGARISHLARI**

**02.00.03-Organik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K621 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.uzicps.uz](http://www.uzicps.uz)) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Elmuradov Burxon Jurayevich,**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xodjaniyazov Xamid Utkirovich,**  
kimyo fanlari doktori

**Xoliqov Tursinali Suyunovich,**  
kimyo fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48), e-mail [plant\\_inst@icps.org.uz](mailto:plant_inst@icps.org.uz), [ixrv@mail.ru](mailto:ixrv@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: [nhidirova@yandex.ru](mailto:nhidirova@yandex.ru)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025-yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh. Sagdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, akademik

**N.K. Xidirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, kimyo fanlari nomzodi,  
katta ilmiy xodim

**E.X. Botirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi  
kimyo fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda xalq xo'jaligining turli sohalari uchun yuqori samarali, mahalliy, ekologik xavfsiz va import o'rnini bosuvchi preparatlar yaratish muhim vazifalardan biridir. Mahalliy va xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida ishlatilayotgan dori vositalari orasida geterotsiklik birikmalarning nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, mazkur birikmalarning xomashyo zahirasi ko'pligi va ular asosida yaratilgan dori vositalarining keng ta'sir spektriga ega ekanligidir. Mana shunday istiqbolli geterotsiklik birikmalar qatoriga benzoksazol hosilalari va ular qatorida aniqlangan yuqori faollikka ega "nomzod" moddalarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, bu birikmalarning turli reaksiyon markazlarga egaligi (polifunksional molekula ekanligi) ular asosida zamonaviy organik sintezning har xil maqsadli modifikatsiyalarini olib borish va yangi "tuzilish-biologik faollik" qonuniyatlarini aniqlash juda dolzarbdir.

Jahonda organik kimyo sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida molekulasida benzoksazol, benzimidazol halqalarini saqlagan geterotsiklik birikmalar orasida tibbiyot va qishloq xo'jaligida qo'llash uchun turli preparatlarning ko'payib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu sinf birikmalarining sintezi, kimyoviy o'zgarishlari va biologik xossalarni tadqiq etish bo'yicha tizimli izlanishlar olib borilgan va preparatlarning individual, kompozitsion, suvda oson eruvchan va suspenziya shakllari ishlab chiqilgan. Lekin, kasallik turlari va zararkunanda hasharotlarning dori vositalariga moslashuvchanligi (rezistentlik) ortishi tufayli yangi, yuqori samarador, kam zaharli va prolongatsion ta'sirga ega preparatlar yaratish zarurati saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> "Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash" vazifalari belgilab berilgan. Mazkur yo'nalishda, O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan tabiiy va sintetik moddalar asosida qishloq xo'jaligi va tibbiyot uchun samarali dori vositalari (uchqun, xinazol, albendazole, galantamin, ferulen, ekdisten va b.) yaratilgan. Shuning uchun, almashingan-benzoksazollarning maqbul sintez usullarini ishlab chiqish, ularning nukleofil va elektrofil agentlar bilan reaksiyalarini tizimli o'rganish, jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni o'rganish yangi va samarali dori vositalarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi "Respublikamizda 2019-2021-yillarda farmatsevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5707-son farmoni, 2021-yil 13-fevraldagi "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4992-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

to'g'risida"gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Almashingan benzoksazollar sintezi dunyoning ko'pgina olimlari tomonidan yaxshi o'rganilgan bo'lib, ushbu izlanishlar hozirgi vaqtda ham jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, V.K. Chaykovskiy, X.M. Niguen, M.Ye. Trusova, K. Ravi Kumar, L.G. Mukhtorov, S.Y. Luo, D.Mita Khunt, D. Vishvanath, M. Majid, B. Shrivastava, Ajay Kumar, M. Gupta, M. Sherifa, I.V. Baranovsky, R.Krishna Kumar, Kirsi Harju, Jalol Hasan Muhammad kabi xorijlik olimlar benzoksazollarning yangi hosilalarini an'anaviy va katalitik usullarda sintez qilish, ular asosida biologik faol birikmalarni aniqlash va ishlab chiqish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha izchil ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Yurtimizda mazkur yo'nalish rivojiga N.A. Aliev, X.M. Shaxidoyatov, N.D. Abdullayev, N.S. Muxammedov, B.J. Elmuradov, B. Tashxodjayev, M.I. Olimova, D.A. Dushamov va boshqalar ilmiy izlanishlari bilan benzoksazollar sintezi, reaksiyalari va biologik faolligini aniqlashga o'z hissalarini qo'shishgan.

Ushbu izlanishlarga qadar azid-alkin siklobirikish reaksiyalari asosida yangi benzoksazol-triazol gibrid molekulalar sintezi, benzoksazolin-2-on va 2-gidrazinilbenzoksazollarning karbonil birikmalar (alifatik va aromatik aldegidlar, aromatik ketonlar va xlorangidridlar, arilsulfoxloridlar) asosida kondensatsiya reaksiyalarini amalga oshirish, natijada *E*-izomer shakldagi gidrazonlar va arilidengidrazinil mahsulotlar, "-NH-NH-SO<sub>2</sub>-ko'priqli" gibrid molekulalar (sulfonogidrazidlar), N-aroil-, sulfonilbenzoksazollar hosil bo'lish reaksiyalari o'rganilmagan. Shuning uchun, ushbu reaksiyalarni amalga oshirish, reaksiya qonuniyatlarini, olingan yangi birikmalarning tuzilishini va ular orasidan yuqori biologik faol "nomzod" birikmalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasidagi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №F-FA-2021-408 "Zamonaviy kross-birikish va geterosiklizatsiya reaksiyalari asosida molekulaga farmakofor fragmentlar kiritish qonuniyatlarini tadqiq etish" (2021-2024) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** benzoksazolin-2-on, 6-xlorbenzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion, 2-gidrazinilbenzoksazollarning sintezi, elektrofil va nukleofil almashinish / birikish reaksiyalarini amalga oshirish, reaksiyalar borishiga va yo'nalishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, sintez qilingan birikmalarning tuzilishini, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

almashingan aminofenollarning aromatik aldegidlar bilan reaksiyalarini amalga oshirish;

6H(xlor)-benzoksazolin-2-onlar va benzoksazolin-2-tionni selektiv propargillash; sintez qilingan N- va S-propargil hosilalarning aromatik azidlar bilan mis (I) galogenidlari (katalizator) ishtirokidagi azid-alkin 1,3-bipolyar siklobirikish reaksiyalarini o'rganish;

benzoksazolin-2-tionni sianetillash reaksiyasini va olingan propannitrilning "genetik qator" modifikasiyalarini amalga oshirish;

6-brombenzoksazolin-2-onni karbon kislota xlorangidridlari bilan katalitik aroillash;

2-gidrazinilbenzoksazolning turli sinf aldegidlari bilan kondensatsiya reaksiyalarini amalga oshirish;

2-gidrazinilbenzoksazolning aromatik xlorangidridlar va ketonlar bilan reagentlarning turli nisbatlaridagi o'zaro ta'sirini o'rganish;

2-gidrazinilbenzoksazol va arilsulfoxloridlar ishtirokida yangi sulfonogidrazidlar sintezini amalga oshirish;

N-metil-6-xlorsulfonilbenzoksazolin-2-onning sintezi va geterotsiklik ikkilamchi aminlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari;

benzoksazolin-2-onning aromatik xlorangidridlar va sulfoxloridlar bilan reaksiyalarini amalga oshirish;

sintez qilingan birikmalarning tuzilishini va biologik faolligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyektlari** sifatida benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion, 6-xlorbenzoksazolin-2-on, 2-gidrazinilbenzoksazol, N- va S-propargil hosilalar, ularni alkilash, atsillash, sianetillash, xlorsulfonillash, arilsulfonillash, azid-alkin siklobirikish reaksiyalari mahsulotlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** dastlabki benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion, 6-xlorbenzoksazolin-2-onlarni selektiv propargillash va katalitik aroillash, benzoksazolin-3-propannitrilning "genetik qator" modifikasiyalari, 2-gidrazinilbenzoksazolning karbonil birikmalar (aromatik xlorangidridlar, aldegidlar va ketonlar, sulfoxloridlar) bilan reaksiyalari, N-metil-6-xlorsulfonilbenzoksazolin-2-onning nukleofil almashinish mahsulotlari hamda gibrid molekulalarning olinish usullari, reaksiyalar yo'nalishi va mahsulotlar turiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, sintez sharoitlari, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Nozik organik sintez usullari, IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografiya (yupqa qatlamli (YuQX) va kolonkali (KX)) hamda biologik tadqiqot usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

almashingan aminofenollar va aromatik aldegidlarning neytral (etanol) hamda kislotali (muz AcOH) sharoitdagi reaksiyalari natijasida halqalanish mahsulotlari (2-almashingan benzoksazollar) hosil bo'lmasdan, aminoguruhning karbonil guruhga nukleofil birikish-eleminirlanish mahsulotlari (Shiff asoslari), kislota konsentratsiyasi va harorat (17.5 ekvivalent,  $118^\circ\text{C}$ ) oshirilganda atsillash reaksiyasi ketib tegishli asetamid (75%) hosil bo'lishi aniqlangan;

benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion va 6-xlorbenzoksazolin-2-onni propargil bromid bilan alkilash (propargillash) reaksiyalari natijasida yaxshi unumlar bilan selektiv N-,S-propargil hosilalar olinishi aniqlangan;

ilk bor N-,S-propargil hosilalar va aromatik azidlar ishtirokida  $\text{Cu}^+$  katalizatorligida

boradigan 1,3-bipolyar siklobirikish reaksiyalari yordamida “metilen / tiometilen ko‘prikli” benzoksazol-triazol gibrid molekularlar hosil bo‘lishi va reaksiyalarning eng maqbul sharoiti (toluol, 110°C, Cu<sub>2</sub>I<sub>2</sub>, 5-6 soat) tavsiya etilgan;

azid-alkin siklobirikish reaksiyalari katalizatorsiz olib borilganda 1,2,3-triazol hosilalarining 1,4- va 1,5-izomerlar aralashmasi, mis (I) galogenidlari katalizatorligida amalga oshirilganda esa selektiv tarzda 1,4-izomerlar hosil bo‘lishi va katalizatorlarning faollik qatori Cu<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub><Cu<sub>2</sub>Br<sub>2</sub><Cu<sub>2</sub>I<sub>2</sub> aniqlangan;

benzoksazolin-2-ning akrilonitril bilan reaksiyasi “yashil kimyo” tamoyillariga mos sharoitda (H<sub>2</sub>O, 50-60°C, 6 soat) olib borilgan va olingan propannitrilning “genetik qator” (nitril → karbon kislota → murakkab efir → gidrazid → arilidengidrazid) modifikasiyalari amalga oshirilgan, sianetillash mexanizmi va olingan mahsulotlarni zamonaviy organik sintezda qo‘llash uchun tavsiya etilgan;

bifunksional fragment saqlagan 2-gidrazinilbenzoksazolning turli o‘rinbosarlar saqlagan aromatik aldegidlar bilan kondensatsiya reaksiyalari natijasida *E*-izomer shakldagi gidrazonlar yaxshi va yuqori unumlar bilan hosil bo‘lishi aniqlangan;

2-gidrazinilbenzoksazolning karbonil birikmalar (aromatik xlorangidridlar, ketonlar, sulfoxloridlar) bilan reaksiyasi selektiv tarzda gidrazinil-fragmentiga ketishi natijasida yangi diaroil, arilidengidrazinil va sulfonogidrazidlar olingan;

benzoksazolin-2-onni katalitik arilsulfonillash va aroillash reaksiyalari endotsiklik N-atomiga ketishi natijasida o‘rtacha va yuqori unumlar bilan amidlar hamda sulfonamidlar hosil bo‘lishi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aromatik aldegidlarning aminofenollar bilan kondensatsiyasi natijasida yangi geterotsiklik birikmalar olish uchun sinton bo‘lib xizmat qiluvchi azometinlar (Shiff asoslari) va asetamidlarining samarador sintez usullari tavsiya etilgan;

6H(xlor)-N-propargilbenzoksazolin-2-onlar va 2-propargiltiobenzoksazoldan “*klik kimyo*” reaksiyasi sharoitida selektiv 1,4-izomerlar shaklidagi benzoksazol-triazol gibrid molekularlarni olishning samarali usullari ishlab chiqilgan;

3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitrilning “genetik qator” kimyoviy o‘zgarishlari natijasida zamonaviy organik va bioorganik sintezda keng qo‘llash mumkin bo‘lgan, tarkibida reaksiyon faol guruhlar hamda fragmentlar (CN, COOH, COOR, CONHNH<sub>2</sub>, CONHN=CH-Ar) saqlagan yangi bilding-bloklar sintez qilish usullari yaratilgan;

2-gidrazinilbenzoksazol va aromatik aldegidlarning absolyut etanoldagi reaksiyalari natijasida barqaror *E*-izomer shakldagi gidrazonlar sintezining maqbul usullari tavsiya etilgan;

2-gidrazinilbenzoksazolning aromatik xlorangidridlar, ketonlar, sulfoxloridlar bilan reaksiyalari natijasida sintetik potentsiali yuqori bo‘lgan diaroil gidrazinlar, ariliden-gidrazinil hosilalar va sulfonogidrazidlar olishning oson va samarali usullari ishlab chiqilgan;

N<sup>3</sup>-metilbenzoksazolin-2-onni benzol halqasini regioselektiv xlorsulfonillash orqali yuqori unum bilan 6-xlorsulfonil-3-metilbenzoksazolin-2-on olingan va uning ikkilamchi geterosiklik aminlar bilan reaksiyalaridan maqsadli sulfonamidlarni sintez qilish usullari yaratilgan;

sintez qilingan birikmalar orasida yuqori o‘stiruvchanlik, ingibitorlik va o‘rtacha

sitotoksik faollikka ega moddalar borligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy IQ,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografiya (YuQX, KX), biologik va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida ishonchli tarzda isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion, 6-xlorbenzoksazolin-2-on va 2-gidrazinilbenzoksazollarning elektrofil reagentlar (aromatik aldegidlar, xlorangidridlar, ketonlar, sulfoxloridlar) bilan o‘zaro ta’siri, propargillash va mahsulotlarning 1,3-bipolyar azid-alkin siklobirikish reaksiyalari, propannitrilning “genetik qator” modifikatsiyalari, aroillash, 3-metil-2-okso-2,3-digidrobenzo[d]oksazol-6-sulfonil xloridning sintezi va nukleofil almashinish reaksiyalari tizimli olib borilgan, natijada yangi C-C, C-N, N-S, C=N, N-SO<sub>2</sub> bog‘lar saqlagan hosilalar olingan va ularning tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari yordamida ishonchli tarzda isbotlangan, reaksiyalar borishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan va nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilingan birikmalar orasida o‘stiruvchanlik va sitotoksik faollikka ega moddalar borligi, shuningdek, N-,S-propargil hosilalar, benzoksazol-triazol gibrid molekular, propannitril asosidagi modifikasiya mahsulotlarining (nitril, karbon kislota, murakkab efir, gidrazid, arilidengidrazid) olinishi, *E*-izomer shakldagi gidrazonlar, amidlar va diamidlar, ariliden-gidrazinil hosilalar, sulfonogidrazidlar, xlorosulfonil va sulfonamidlarning samarali olinish usullari yaratilishi, 2 ta birikmaning RTT natijalari xalqaro Kembridj markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilganligi, 96 ta birikmaning (72 tasi yangi) sintez usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotlar natijalarining joriy qilinishi.** Benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion, 6-xlorbenzoksazolin-2-on, 2-gidrazinilbenzoksazolni elektrofil va nukleofil almashinish / birikish mahsulotlarining olinishi, sintez qilingan birikmalarning tuzilishi va biologik xossalarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

3-(4-metilbenzoil)benzo[d]oksazol-2(3H)-on, 3-tozilsulfonil-benzo[d]oksazol-2(3H)-onlarning RTT natijalari Kembridj markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam>, CCDC: 2294649, 2294650). Natijada, bazaga kiritilgan moddalarga o‘xshash birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

Benzoksazollar, ularning hosilalari sintezi va kimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganish natijalaridan №F-FA-2021-408 raqamli “Zamonaviy kross-birikish va geterosiklizatsiya reaksiyalari asosida molekulaga farmakofor fragmentlar kiritish qonuniyatlarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada azometinlar, amidlar va benzoksazol-triazol gibrid molekular hosil bo‘lish reaksiyalaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 28-maydagi 4/1255-1150-son ma’lumotnomasi). Natijada, Schiff asoslari va amidlar benzoksazollar sintezida muhim xomashyo ekanligi, propargil efirlari va aromatik azidlarning 1,3-bipolyar siklobirikish reaksiyalaridan 1H-1,2,3-triazollarning yangi hosilalarini olishda muvaffaqiyatli qo‘llash mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan 10 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 1 ta maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o’tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Benzoksazollar sintezi, reaksiyalari va biologik faolliklari”** deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma’lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning **“6-Almashingan benzoksazolin-2-on, -tionlar sintezi, modifikatsiyasi va biologik faolliigi”** nomli **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Almashingan aminofenollar asosidagi modifikatsiyalar.** Tadqiqotlar uchun kerak bo’lgan benzoksazolin-2-on (**1**), 6-xlorbenzoksazolin-2-on (**3**) va benzoksazolin-2-tionlar (**2**) almashingan aminofenollarning mochevina va tiomochevina bilan halqalanishidan olinadi:




**I:** 2-OH-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>CHO, AcOH (8.75 ekv.), 110°C, 4 soat; **II:** 4-NO<sub>2</sub>-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>CHO, AcOH (17.5 ekv.), 118°C, 4 soat;  
**III:** 4-N(CH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>CHO, EtOH, 78°C, 12-18 soat; **1,** R=H, X=O; **2,** R=H, X=S; **3,** R=Cl, X=O; **4, 4a,** R=H, R<sub>1</sub>=NMe<sub>2</sub>-4;  
**5, 5a,** R=Cl, R<sub>1</sub>=NMe<sub>2</sub>-4; **6, 6a,** R=NO<sub>2</sub>, R<sub>1</sub>=OH-2; **7b,** R=NO<sub>2</sub>, R<sub>1</sub>=NO<sub>2</sub>-4.

Ta’kidlash lozimki, aminofenollarning aromatik aldegidlar bilan neytral (III) yoki kuchsiz kislotali (I) muhitdagi reaksiyalari natijasida halqalanish mahsulotlari - 2-

almashingan benzoksazollar (**4a**, **5a**, **6a**, **7b**) emas, balki aminoguruhning karbonil guruhga nukleofil birikish-eliminirlanish mahsulotlari - Shiff asoslari (**4** - 98%; **5** - 80%; **6** - 90%) hosil bo'ldi. Reaksiya ortiqcha miqdorda olingan muz AcOH (II) ishtirokida amalga oshirilganda atsetamid (**7**) olindi. Olingan birikmalarning (**1-7**) tuzilishi spektral usullar bilan to'liq tasdiqlandi. 1-Rasmda **6**-birikmaning (tuz shakli) kristaldagi tuzilishi va ichki molekulyar H bog'lanishi keltirilgan.

**Benzoksazolin-2-on, -tion va 6-xlorbenzoksazolin-2-onlarni propargillash va mahsulotlarning 1,3-bipolyar siklobirikish reaksiyalari.** Dastlabki benzoksazolin-2-on, benzoksazolin-2-tion va 6-xlorbenzoksazolin-2-onlarning (**1-3**) sintetik potensialini oshirish maqsadida propargillash reaksiyalarini olib bordik. Reaksiyalar reagentlar **1-3**:propargil bromid – 1.0:1.2 nisbatlardagi aralashmasini quruq potash ishtirokida absolyut asetonda (55-56°C) 6 soat qaynatish bilan olib borildi va yaxshi unumlar bilan 6H(xlor)-N-propargilbenzoksazolin-2-onlar (**8-66%**, **10-84%**) va 2-propargiltiobenzoksazolinlar (**9-75%**) hosil bo'ldi. Birikmalarning IQ spektrida ( $\text{cm}^{-1}$ ) uchbog' tutgan uglerod atomining  $\equiv\text{C-H}$  bog'iga tegishli yutilish chastotalari 3446-3448 sohada, karbonil guruhlariga ( $\text{C=O}$ ) tegishli signallar esa 1675-1678 sohada, C-S bog'lariga xos yutilish chiziqlarining 768-774 sohada namoyon bo'lishi ularni tuzilishini isbotlaydi. Shuningdek, **8**-birikmaning  $^1\text{H}$  YaMR ( $\text{CDCl}_3$ ) spektrida 7.18 m.u. sohada aromatik protonlarga xos 4 protonli (4H, m) signallar bilan birgalikda 3-holatdagi atsetilen (metin) protoni ( $^3\text{N-CH}_2\text{-C}\equiv\text{CH}$ ) hamda metilen ( $^3\text{N-CH}_2\text{-C}\equiv\text{CH}$ ) guruhi vodorodlarining 2.36, 4.62 m.u. sohalarda (1H, t,  $J=2.6$ ) triplet va 2 protonli (2H, d,  $J=2.5$ ) dublet shaklidagi kimyoviy siljishlarga (KS) ega ekanligi aniqlandi:



- 11**  $R_1=R_3=\text{H}$ ,  $R_2=\text{NO}_2$ ; **12**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{CH}_3$ ; **13**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{OCH}_3$ ; **14**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{Cl}$ ;  
**15**  $R_1=\text{Br}$ ,  $R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ; **16**  $R_1=\text{CH}_3$ ,  $R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ; **17**  $R_1=\text{H}$ ,  $R_2=R_3=\text{Cl}$ ; **18**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{COOC}_2\text{H}_5$ .  
**19**  $R_1=R_3=\text{H}$ ,  $R_2=\text{NO}_2$ ; **20**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ; **21**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{COOH}$ ; **22**  $R_1=\text{Br}$ ,  $R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ;  
**23**  $R_1=\text{CH}_3$ ,  $R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ; **24**  $R_1=\text{H}$ ,  $R_2=R_3=\text{Cl}$ ; **25**  $R_1=\text{COOH}$ ,  $R_2=R_3=\text{H}$ .  
**26**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{CH}_3$ ; **27**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{NO}_2$ ; **28**  $R_1=R_3=\text{H}$ ,  $R_2=\text{NO}_2$ ; **29**  $R_1=R_2=\text{H}$ ,  $R_3=\text{COOC}_2\text{H}_5$ .

Siklobirikish reaksiyalari mis (I) yodid, mis (I) bromid va mis (I) xlorid tuzlari katalizatorligida olib borildi. Reaksiya **8-10**-moddalar va aromatik azidlarni 1:1 nisbatdagi aralashmasini, kam miqdordagi mis (I) yodid va mis (I) bromid katalizatorligida, qutbsiz organik erituvchi muhitida 4-8 soat vaqt davomida qaynatish orqali olib borildi va reaksiya natijasida 1,2,3-triazollarning faqat 1,4-izomerlari (**11-29**) yuqori unumlar (75-95%) bilan hosil bo'lishi aniqlandi, katalizatorlarning faolligi esa quyidagi tartibda ortib borishi kuzatildi:  $\text{Cu}_2\text{Cl}_2 < \text{Cu}_2\text{Br}_2 < \text{Cu}_2\text{I}_2$  (1-jadval).

**1-Jadval. Olingan birikmalarning (11-29) ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari**


№	Brutto formula	R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
11	C <sub>16</sub> H <sub>10</sub> N <sub>5</sub> O <sub>4</sub>	0.67*	218-220	95
12	C <sub>17</sub> H <sub>14</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub>	0.44*	196-198	92
13	C <sub>17</sub> H <sub>14</sub> N <sub>4</sub> O <sub>3</sub>	0.28*	178-180	75
14	C <sub>16</sub> H <sub>11</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub> Cl	0.40*	125-127	83
15	C <sub>16</sub> H <sub>9</sub> N <sub>3</sub> BrO <sub>4</sub>	0.65*	143-145	78.9
16	C <sub>17</sub> H <sub>12</sub> N <sub>5</sub> O <sub>4</sub>	0.46*	198-200	82.5
17	C <sub>16</sub> H <sub>9</sub> N <sub>4</sub> OCl <sub>2</sub>	0.57*	238-240	83
18	C <sub>19</sub> H <sub>16</sub> N <sub>4</sub> O <sub>4</sub>	0.33*	198-200	88
19	C <sub>16</sub> H <sub>10</sub> N <sub>5</sub> SO <sub>3</sub>	0.58**	140-142	87.5
20	C <sub>16</sub> H <sub>10</sub> N <sub>5</sub> SO <sub>3</sub>	0.61**	118-120	80.5
21	C <sub>17</sub> H <sub>11</sub> N <sub>4</sub> SO <sub>3</sub>	0.68**	263-265	81.5
22	C <sub>16</sub> H <sub>9</sub> N <sub>5</sub> SBrO <sub>3</sub>	0.69**	144-146	68
23	C <sub>17</sub> H <sub>12</sub> SO <sub>3</sub> N <sub>5</sub>	0.55**	145-147	82
24	C <sub>16</sub> H <sub>9</sub> SN <sub>4</sub> OCl <sub>2</sub>	0.44**	138-140	76.5
25	C <sub>17</sub> H <sub>11</sub> N <sub>4</sub> SO <sub>3</sub>	0.57**	158-160	82
26	C <sub>17</sub> H <sub>13</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub> Cl	0.34**	254-256	77
27	C <sub>16</sub> H <sub>10</sub> N <sub>5</sub> O <sub>4</sub> Cl	0.45**	228-230	54
28	C <sub>16</sub> H <sub>10</sub> N <sub>5</sub> O <sub>4</sub> Cl	0.69**	194-196	68
29	C <sub>19</sub> H <sub>15</sub> N <sub>4</sub> O <sub>4</sub> Cl	0.36**	232-234	80

**Sistema:** \*benzol : metanol – 5 : 1; \*\* xloroform : metanol – 10 : 1.

Olingan **11-29**-moddalarning tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari: IQ, <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiya yordamida to'liq isbotlandi. Xususan, **20**-birikmaning <sup>1</sup>H YaMR spektrida (DMSO-d<sub>6</sub>) benzoksazol va triazol halqalarini bog'lab turuvchi metilen guruhi protonlari nisbatan kuchsiz – 4.70 m.u. sohada ikki protonli (2H, s) singlet holdagi intensiv signalga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Molekuladagi benzoksazol halqasi protonlari 7.24 (2H, m, H-5, 6), 7.47 (1H, dd, J=7.1, 1.5, H-4) va 7.58 (1H, dd, J=6.9, 1.7, H-7) m.u. sohalarda dubletlar dubleti hamda multiplet shakllarda, nitroguruh saqlagan fenil guruhi protonlari esa 8.20 (2H, d, J=9.4, H-2', 6'), 8.36 (2H, d, J=9.2, H-3', 5') m.u. sohalarda o'ziga xos ikki protonli dubletlar ko'rinishda namoyon bo'ladi. Triazol halqasiga tegishli protonga (1H, s) xos singlet signal biroz kuchsiz 8.94 m.u. sohada kimyoviy siljishga (KS) ega ekanligi aniqlandi.

**3-(2-Tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril sintezi va kimyoviy o'zgarishlari.** Samarali sianetillash usulini yaratish va olingan propannitrillarning ayrim kimyoviy o'zgarishlarini o'rganish maqsadida benzoksazolin-2-tionni (**2**) akrilonitril (AN) bilan suvli eritmada katalizatorsiz reaksiyasi olib borildi va yaxshi unum bilan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**30**, 67%) olishga erishildi. Tadqiqotlar davomida propannitril (**30**) kons. HCl ishtirokida qaynatildi va yuqori unum bilan tegishli 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota (**31**) hosil bo'ldi. Ushbu sharoitda nitril guruhining karboksil guruhigacha gidrolizlanishi juda oson borishi kuzatildi. Olingan kislota (**31**) ba'zi kimyoviy o'zgarishlarini amalga oshirish maqsadida abs. etanol bilan eterifikasiyasi amalga oshirildi va 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota etil efiri (**32**) olindi, efirni 85% li gidrazin gidrat bilan nukleofil almashinish reaksiyasi nisbatan past haroratda (10°C) 4

soat davomida intensiv aralastirish bilan olib borildi va 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota gidrazidi **33** (95%) olindi:




**a:** Akrilonitril, H<sub>2</sub>O, 50-60°C, 10 soat; **b:** kons. HCl, 95°C, 6 soat; **c:** abs. EtOH, kons. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, C<sub>6</sub>H<sub>6</sub>, 80°C, 6 soat; **d:** N<sub>2</sub>H<sub>4</sub>·H<sub>2</sub>O, 10°C, 4 soat; **e:** ArCHO, EtOH, 78°C, 2 soat; **34** 4-Cl-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (60%); **35** 4-Br-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (74%); **36** 4-CH<sub>3</sub>-O-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (67%); **37** 3,4,5-(CH<sub>3</sub>O)<sub>3</sub>-C<sub>6</sub>H<sub>2</sub> (66%).

Etoksi-gruhining (**32**) OH guruhiga (**31**) nisbatan nukleofilligi yuqori bo'lganligi tufayli murakkab efir bog'i (O=C-OEt) kuchli nukleofil reagentlar ta'sirida nisbatan past haroratda va qisqa vaqtda oson uziladi, hamda kerakli gidrazidlarni hosil qiladi. Gidrazid tarkibidagi gidrazin fragmenti reaksiya qobiliyati yuqori bo'lgan markazdir, uning aromatik aldegidlar bilan kondensatsiya **33**:aldegid- 1:1 nisbatda etanolda olib borildi va *E*-izomer shakldagi ariliden hosilalar (**34-37**) yaxshi unumlar bilan olindi.

Birikmalarning tuzilishi IQ, <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya natijalari asosida tasdiqlandi. Shunday qilib, benzoksazolin-2-tionni katalizatsiz sharoitda sianetillashning oddiy va samarali usuli ishlab chiqildi. Bu usulning afzalligi shundaki, u "yashil kimyo" tamoyillariga mos keladi hamda olingan propannitril asosidagi modifikatsiyalar natijasida yangi reaksiya markaz saqlagan biling-bloklar olishning samarali usullari ishlab chiqildi.

### 6-Brombenzoksazolin-2-onning sintezi va atsillash reaksiyalari.

Benzoksazolin-2-onning 6-holatiga elektronoakseptor guruhlar kiritilganda atsillash reaksiyalari molekulyar brom ishtirokida reagentlarning 1:Br<sub>2</sub>-1:2 nisbatlarida, muz sirka kislotada (yoki abs. CHCl<sub>3</sub>) 40 daqiqa davomida aralastirish bilan olib borildi va 6-brombenzoksazolin-2-on (**38**) yaxshi unum bilan olindi:




Tadqiqotlarimizni yanada kengaytirish maqsadida olingan 6-brombenzoksazolin-2-on va karbon kislota xlorangidridlarining 1:1 nisbatdagi aralashmasi benzol eritmasida oz miqdordagi TEA katalizatori ishtirokida 80°C da 2 soat davomida qaynatildi va tegishli 3-atsil-6-brombenzoksazolin-2-onlar (**39-43**) olindi.

Olingan barcha birikmalarning tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari, jumladan, IQ, <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR spektroskopiya natijalari asosida to'liq isbotlandi.

Birikmalarning IQ spektrlarida benzoksazol va qo'shni aromatik halqani ko'prik sifatida bog'lab turgan karbonil (CO) guruhiga tegishli yutilish chastotasi **39**-birikmada  $1680\text{ cm}^{-1}$  da, **40** –  $1690\text{ cm}^{-1}$ , **41** –  $1685\text{ cm}^{-1}$ , **42** hamda **43**-birikmalarda  $1675\text{ cm}^{-1}$  da namoyon bo'ladi.

**2-Gidrazinilbenzoksazol sintezi va uning turli aromatik aldegidlar bilan reaksiyalari.** Benzoksazolin-2-tionning kimyoviy o'zgarishlarini o'rganishda davom etib etil bromid bilan etilash reaksiyasi 2:etilbromid: $\text{K}_2\text{CO}_3$  1:2:0.1 nisbatdagi aralashmasini  $55\text{-}56^\circ\text{C}$  da 5-6 soat qizdirib olib borildi. Natijada S-alkil hosila - 2-etiltiobenzoksazol (**44**, 73%) sintez qilindi. Uning gidrazingidrat bilan reaksiyasi etanol eritmasida reagentlarning (**44** :  $\text{N}_2\text{H}_4\cdot\text{H}_2\text{O}$ ) 1:1.5 nisbatdagi aralashmasini  $78^\circ\text{C}$  da 8 soat qaynatib olib borildi. Bunda etil guruhining gidrazin qoldig'i bilan o'zaro nukleofil almashinishi oson ketib 2-gidrazinilbenzoksazol (**45**, 65%) sintez qilindi. Bu birikmani turli xil almashingan aromatik aldegidlar bilan kondensasiya reaksiyalari (reagentlar nisbati 1:1, etanol  $78^\circ\text{C}$ ) gidrazid fragmentining nukleofiligi nisbatan yuqoriroq bo'lgan aminoguruh bo'yicha ketadi va *E*-izomer shakldagi 2-gidrazinilbenzoksazolning gidrazonlari (**46-70**) yaxshi va yuqori unumlar bilan hosil bo'ladi:



**46**  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_1=\text{CH}_3$ ; **47**  $\text{R}_1=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{CH}_3$ ; **48**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{CH}_3$ ; **49**  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_1=\text{OH}$ ; **50**  $\text{R}_1=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{OH}$ ;  
**51**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{OH}$ ; **52**  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_1=\text{Cl}$ ; **53**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{Cl}$ ; **54**  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_1=\text{Br}$ ; **55**  $\text{R}_1=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{Br}$ ;  
**56**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{Br}$ ; **57**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{NO}_2$ ; **58**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{OCH}_3$ ; **59**  $\text{R}_1=\text{OH}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{H}$ ,  $\text{R}_4=\text{OCH}_3$ ; **60**  $\text{R}_1=\text{OH}$ ,  $\text{R}_2=\text{OCH}_3$ ,  $\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ;  
**61**  $\text{R}_1=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{OCH}_3$ ; **62**  $\text{R}_1=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{OCH}_3$ ; **63**  $\text{R}_1=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{CH}_2\text{OH}$ ,  $\text{R}_3=\text{OCH}_3$ ; **64**  $\text{R}_1=\text{OH}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{H}$ ,  $\text{R}_4=\text{Br}$ ;  
**65**  $\text{R}_1=\text{OCH}_2\text{CCH}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{H}$ ,  $\text{R}_4=\text{Br}$ ; **66**  $\text{R}_1=\text{OCH}_2\text{CCH}$ ,  $\text{R}_2=\text{R}_3=\text{R}_4=\text{H}$ ; **67**  $\text{R}_1=\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{OCH}_2\text{CCH}$ ; **68**  $\text{R}_1-\text{R}_2=\text{R}_4=\text{H}$ ,  $\text{R}_3=\text{N}(\text{CH}_3)_2$ ;

Sintez qilingan yangi birikmalarning (**46-70**) tuzilishi  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR spektroskopik tahlillar asosida o'rganildi. Xususan, **46**-moddaning  $^1\text{H}$  YaMR spektrida singlet signallar ko'rinishidagi 10.90 m.u. da gidrazinil fargmenti azot atomining bir protonli singleti, 8.40 m.u. da esa yangi gidrazometin vodorodiga tegishli bir protonli singlet KS mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, benzoksazol fragmentining aromatik protonlari 7.46 (2H, m, H-4,7), 7.14 (1H, m, H-5) va 7.25 (1H, t,  $J=7.6$ , H-6) m.u. sohalarda namoyon bo'ladi, yon zanjirning metil guruhi protonlari nisbatan kuchsiz – 2.49 m.u. da uch protonli (3H, s,  $\text{CH}_3$ ) singlet holda, aromatik soha protonlari 7.28 (2H, m, H-4',5'), 7.20 (1H, d,  $J=7.4$ , H-3') va 7.97 (1H, d,  $J=7.3$ , H-6') m.u. sohalarda tegishli KS ga ega.


Shunday qilib, tadqiqotlar davomida binukleofil tabiatga ega bo'lgan 2-gidrazinilbenzoksazolning (**45**) karbonil birikmalar (aromatik aldegidlar, jasmin aldegidi va ferrosenkarbaldegid) bilan olingan birikmalar tarkibi, tuzilishi hamda biologik xususiyatlari jihatdan qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, elektrofil reagent tuzilishiga qarab *E*-izomer shakldagi yangi gidrazonlar (**46-70**) yaxshi va yuqori unumlar bilan hosil bo'lishi aniqlandi (2-jadval).

2-Jadval. Olingan 46-70-birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Brutto formula	R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
46	C <sub>15</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O	0.42*	190-192	68
47	C <sub>15</sub> H <sub>12</sub> N <sub>3</sub> O	0.72*	186-188	77.5
48	C <sub>15</sub> H <sub>12</sub> N <sub>3</sub> O	0.71*	238-240	80
49	C <sub>14</sub> H <sub>11</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.80*	256-258	69
50	C <sub>14</sub> H <sub>11</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.40*	236-238	45.5
51	C <sub>14</sub> H <sub>11</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.28*	256-258	57.8
52	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> OCl	0.77*	236-238	76.5
53	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> OCl	0.60*	250-252	81
54	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> OBr	0.43*	240-242	87.5
55	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> OBr	0.58*	210-212	60
56	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> OBr	0.71*	258-260	88
57	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>4</sub> O <sub>3</sub>	0.45*	284-286	72
58	C <sub>15</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.48*	208-210	85
59	C <sub>15</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub>	0.38*	248-250	65
60	C <sub>15</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub>	0.42*	218-220	92
61	C <sub>16</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub>	0.64*	242-244	64.5
62	C <sub>17</sub> H <sub>17</sub> N <sub>3</sub> O <sub>4</sub>	0.64*	208-210	98
63	C <sub>16</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub>	0.30*	215-218	74.5
64	C <sub>14</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> Br	0.79*	262-264	70
65	C <sub>17</sub> H <sub>12</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub> Br	0.48**	236-238	75
66	C <sub>17</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.67**	216-218	68
67	C <sub>17</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	0.62**	198-200	58
68	C <sub>16</sub> H <sub>16</sub> N <sub>4</sub> O <sub>2</sub>	0.78**	216-218	86.4
69	C <sub>21</sub> H <sub>23</sub> N <sub>3</sub> O	0.54**	162-164	64
70	C <sub>18</sub> H <sub>14</sub> N <sub>3</sub> OFe	0.35**	198-200	82

Sistema: \*xloroform : metanol – 10:1, \*\*benzol : metanol 3:1.

**2-Gidrazinilbenzoksazolning aromatik xlorangidridlar, ketonlar va sulfoxloridlar bilan reaksiyalari.** Tarkibida binukleofil fragmenti saqlagan 2-gidrazinilbenzoksazolning (**45**) karbonil birikmalar (aromatik xlorangidridlar, ketonlar, sulfoxloridlar) bilan reaksiyalari amalga oshirildi. Aromatik xlorangidridlar bilan TEA ishtirokidagi reaksiyalari benzolda 4-6 soat (**45**: xlorangidrid - 1:2) qaynatish bilan olib borildi va tegishli diatsil mahsulotlar (**71**, **72**) olindi. Aromatik ketonlar bilan reaksiyalar etanolda 1:1 nisbatda 4 soat qaynatish bilan olib borildi va *E*-izomer shakldagi ariliden gidrazinil hosilalar (**73**, **74**) sintez qilindi:



Reaksiya gidrazinil-hosilaning ketonlar tarkibidagi Ar-C=O guruhiga nukleofil birikish bilan borib, jarayon davomida eliminirlanish – suvning ajralishi kuzatiladi. Aromatik sulfoxloridlar bilan reaksiyalar (**45** : arilsulfoxlorid : TEA – 1:1:2) benzol eritmasida 80°C da TEA ishtirokida 4 soat qaynatish bilan olib borildi va “-NH-NH-SO<sub>2</sub>- ko‘priki” yangi gibrid molekularlar - sulfonogidrazidlar (**75-78**) yuqori unumlar bilan sintez qilindi (3-jadval).

**3-Jadval. Olingan birikmalarning (71-78) ba’zi fizik-kimyoviy kattaliklari**

№	Brutto formula	R <sub>f</sub>	Suyuq. har., °C	Unum, %
<b>71</b>	C <sub>23</sub> H <sub>19</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub>	*0.77	156-158	80
<b>72</b>	C <sub>21</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub> F <sub>2</sub>	*0.67	206-208	78.5
<b>73</b>	C <sub>15</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O	**0.42	196-198	58.2
<b>74</b>	C <sub>16</sub> H <sub>15</sub> N <sub>3</sub> O <sub>2</sub>	**0.76	206-208	74
<b>75</b>	C <sub>13</sub> H <sub>10</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub> SF	***0.55	215-217	90.5
<b>76</b>	C <sub>14</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>4</sub> S	***0.50	228-230	86
<b>77</b>	C <sub>14</sub> H <sub>13</sub> N <sub>3</sub> O <sub>3</sub> S	***0.49	278-280	63
